


# Angorda viloyat hokimining sayyor qabuli boshlandi



Ayni vaqtda Angor tumani "Sharq guli" mahalla fuqarolar yig'ini hududida viloyat hokimi To'ra Bobolov boshchiligida sektorlar, viloyat hokimi o'rinbosarlari, boshqarma va tashkilotlar, Xalq qabulxonasi rahbarlarining aholi muammolarini o'rganish maqsadida ommaviy sayyor qabuli bo'lib o'tmoqda.

Hozirga qadar qabulda ishtirok etish uchun ro'yxatga olingan fuqarolar soni 68 nafarni tashkil etib, ulardan 14 nafarining murojaati tinglandi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati